

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Andijon viloyati Izboskan tumani 45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Axmadjonova Dilfuzaxon Abduraximovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar, "33ta 33" didaktik o'yini, "Sehrli saroy" o'yini, Quvnoq vagonlar yoki poyezd" o'yini.

Barchamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish judamurakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'limfaoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi.

Ta'limiy o'yinlarning yana bir jihat shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini ta'minlaydi. Miyadagi bunday faollik berilgan axbarotni bir vaqtning o'zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta'minlaydi.

Shularni inobatga olgan zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi.

O'quv-bilim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada o'qishga bo'lган motivatsiyani to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Didaktik o'yinlar aynan shunday motivatsiyani bera oladi. Ta'lim jarayonini alohida jarayon sifatida ko'rib uni bolaning asosiy faoliyati bo'lmish o'yin faoliyatidan ajratib qo'yish esa bolani qafasga solib qo'yish bilan barobar.

O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushunchalardan iborat bo'lib dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning o'zida bu bilimlarni hayotda qo'llab ko'radi.

Misol tariqasida "33ta 33" didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi.

O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5,qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi.

Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi. Matematika darsida "Sayohat dars" didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin.

Didaktik topshiriq: berilgan misollarni to'g'ri va aniq yechish xatolar ustida ishlay olish.

O'yin topshirig'i: O'quvchilarning matematikaga bo'lган qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash

O'yinshart, magnit doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan. Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilganbo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-

Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish bo'yicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rnidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoproyektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqatbilanqarash talab etiladi. O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi so'raladi.

Tabiat bilan bog'lashda esa videolavhada ko'rgan tasvirlari asosida suhbat o'tkazish mumkin.

“Sehrli saroy” o'yini

Didaktik topshiriq: to'g'ri va xatosiz hisoblashga o'rgatish, kompyuter saboqlaridan ogoh qilish.

O'yin topshirig'i: maktab ilm olish dargohi ekanligi haqida tushuncha berish.

O'yin bayoni: Bor ekanda, yo'q ekan, qadim zamonda bir ona bo'lgan ekan. Uning uquvsiz bir o'g'li bor ekan. O'g'li yeti yoshga to'lganda onasi uni bir saroyga boshlab boribdi. U oddiy saroy emas, balki sehrli saroy ekan.Ular saroyga yaqinlashib kelishibdi. Saroyning katta eshiklari bor ekan. Uning derazalari ko'p, xonalari yorug', yo'laklari uzun ekan. Shunda onasi o'g'liga: «Bolaginam, men seni mana shu saroyga olib keldim. Sen bu saroyda 9 yil yashaysan. Undan keyin esa boshqa eshikdan chiqasan, bu yerga kelganday emas, balki butunlay boshqa holatda bo'lasan. Sen katta bo'lib qolasan, chiroyli va aqli bo'lib yetishasan, ko'p narsani biladigan bo'lasan», — debdi.

— Bolalar bu qanday saroy ekan-a?

— Bu mакtab, ilm olish dargohi.

Sehrli saroyning ichkarirog'iga kirib borsak, bolalarning aqlini charxlovchi matematika faniga duch kelamiz. Matematika fanini o'rganishdan maqsad to'g'ri va xatosiz hisoblashni egallash bilan bir qatorda kompyuter saboqlaridan ogoh bo'lishdir.Bilimdon, zukko, komil insonlarni yetkazib berishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyosdir. “Sehirli saroy” didaktik usuli orqali mакtabda ilk qadam qo'ygan

boshlang'ich sinf o'quvchilarda mакtabga, ilm olishga muhabbat motivatsiyasi shakillantiriladi.

“Quvnoq vagonlar yoki poyezd” o'yini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning arifmetik amallarni bajarishlari jarayonida yo'l qo'yiladigan xatoliklarni bartaraf etishga o'rgatish.

O'yin topshirig'i: Topshiriqlarni doiraviy misollar yechish orqali o'quvchilarning bilimini mustahkamlash.

O'yin bayoni:


O'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha savol beradi:

— Siz qanday transportlarni bilasiz?

— Javob: — avtobus, tramvay, trolleybus, poyezd, metro, yengil mashinalar.

— O'qituvchi: Juda to'g'ri javob qildingiz, endi biz sizlar bilan «Quvnoq vagonlar»

o'yinini o'ynaymiz. Bu o'yinni turlichcha o'tkazish mumkin.



1- topshiriq: Ko'rgazmali qurolda ko'rsatilgan misollarning javobini topish lozim.

$$17-2=15, 15+1 = 16, 16-8 = 8, 8 + 9=17 \quad 17 + 0=17$$


$$18 + 2 = 20, 20-5=15, 15 + 4=19, 19-11=8 \quad 8+10=18$$

Misollarning javobini topganlaridan so'ng uning qiziqarli tomonini topishga da'vatetiladi. Qiziqarliligi shundaki, o'quvchilar birinchisining javobi, ikkinchisining boshlanishi “zanjir”ga o'xshash ekanligiga iqror boladi.

2- topshiriq: O'quvchilarning oldiga misol yozilgan kartochka yopishtirib qo'yiladi. U misollarning javobini tez va chaqqon topgach, o'quvchilar kim-kimdan

keyin turishini bilib oladilar. Bir o'quvchi paravoz, qolganlari vagonchalar bo'lib ketma-ket turib olishlari kerak. Xato qilgan o'quvchilarga yordam beriladi. Shu tariqa o'yin bir necha marta takrorlanadi.

3-topshiriq: Yuk tashuvchi poyezdlar vagonlariga sabzavotlar, mevalar yuklab, ularnibir shahardan ikkinchi shaharga jo'natish mumkin.




O'quvchilar misollarning javobini topib, necha kilogramm jo'natilayotganini chaqqonlik bilan aytib berishlari lozim. Bu bilan bolalarning massa o'lchovlari haqida olgan bilimlari mustahkamlanadi.

"Qurilishga sayohat" o'yini

Didaktik topshiriq: O'quvchilarning matemetika darslarida hayot bilan bog'lab o'qitilishdagi faolligini oshirish. O'yin topshirig'i: Oquvchilarni matemetika darslarida turmush bilan bog'lab o'qitish va kasb-hunarga qiziqishini orttirish.

O'yin bayoni: Bu o'yin 2 sinfda 1000 ichida to'rt amalni o'rganilgandan so'ng mustahkamlash bosqichida o'tkazilishi mumkin. O'yin jihizi magnitli doska, qalin qog'ozdan yasalgan uy poydevoridan tortib, to'liq tayyor bo'lganiga qadar bo'lgan jarayonni aks ettiruvchi tasvir va 5 ta bosqichga 5 ta kartochkaga yozilgan topshiriq tayyorlab qo'yiladi. O'qituvchi o'yinning sharti bilan tanishtiradi. Uy yonidan o'tuvchi yo'lga yengil mashina o'yinchog'i yoki rasmi qo'yiladi.



Uyning poydevori qurilishdan tomi yopilguncha bo'lgan 5 ta bosqichning har biridabittadan jami 5 ta kartochka yozilgan topshiriqlar beriladi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi (3 qator parta 3 guruh deb o'rgatiladi). Har bir guruhdan o'quvchi chiqib 1-rasm orqasiga yopishtirib qo'yilgan topshiriqni o'qiydi (Har bir guruh uchun bittadan misol yozilgan bo'ladi).

1. Misolni doskada yechadilar.

$$1\text{-guruh}: 19 - x = 2$$

$$2\text{-guruh}: x - 2 = 8$$

$$3\text{-guruh}: 34 - x = 10$$

5 nafar o'quvchi tenglamani yechib bo'lgandan keyin uyning poydevori quriladi. Bir o'quvchi chiqib mashinani 2-uyning tagiga surib qo'yadi. Yana 3 o'quvchi (har bir guruhdan 1 nafar) chiqib savolni olib o'qiydi.

2. Misollarni yeching:

$$1\text{-guruh}: 328 + 687 = 435$$

$$2\text{-guruh}: 219 + 164 + 421$$

$$3\text{-guruh}: 213 + 784 - 428$$

Amal hadlari nomlarini to'g'ri aytib, tushuntirib yechiladi. Mashina 3-raqamli uyning tagiga suriladi, savolni o'qib eshittiriladi. Unda quyidagi misollar berilgan bo'lib, o'quvchilar xatosini topishlari kerak.

$$1\text{-guruh}. 3. 320 + 10 = 400 \text{ (o'quvchi 330 hosil bo'ladi deb aytadi)}.$$

$$2\text{-guruh}. 140 + 20 = 160 \text{ (o'quvchi to'g'ri bajarilgan deydi)}.$$

$$3\text{-guruh}. 270 + 10 = 290 \text{ (o'quvchi 280 hosil bo'ladi deb aytadi)}.$$

Mashina 4-uyning yarmida to'xtatilib, topshiriqdagi savol o'qiladi.

4. Magnit doskaga misollar yozilgan ko'rgazmali quroq yopishtirib qo'yilgan.

Har bir

qatordan 1 nafar o'quvchi chiqib javobini aytishi lozim.

$$1\text{-guruh}: 420 + 50 - 100 = 370$$

$$2\text{-guruh}: 350 + 50 - 40 = 360$$

$$3\text{-guruh}: 700 + 50 - 50 = 700$$

Mashina nihoyat 5-uyning yoniga surib qo'yiladi.

5. Masala. Bilmasvoyga yordam bering!

Do'konda bir kunda 265 kg shakar sotildi. Sotuvdan keyin do'konda yana 138 kg shakar qoldi. Dastlab do'konda necha kilogramm shakar bo'lgan?

Yechish:

$$x - 265 = 138 \quad 1) \quad 265 + 138 = 403 \text{ kg shakar}$$

$$x = 138 + 265$$

$$x = 403$$

Javob: Dastlab do'konda 403 kg shakar bo'lgan.

– Mana bolajonlar, uyning poydevoridan boshlab to bitgunga qadar mehnat qildik. Uyimiz tayyor bo'ldi. Sinf sharoitiga qarab masala, misollarni o'zgartirib turish mumkin.

Kim quruvchi bo'lmoq-chi? deb o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish mumkin.

Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali bo'lishiga, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvoffaqiyatli boshqarishga, matematikadan nazariy bilimlarni oson egallashlariga, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar mazmuni va ahamiyatini chuqur, aniq belgilash ta'lim sifati mazmunini samarali bo'lishiga zamin hosil qiladi. O'yin esa bolaning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyat bo'lib, uning bu faoliyati ob'yektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada mustahkamlanishidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik muktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi.

Muxtasar qilib aytganda didaktik o'yinlardan foydalanib darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirish, fanlar aro bog'lanish va o'quvchilarda egallangan bilimni hayotda qo'llay olishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alixonov S. « Matematika o'qitish metodikasi » Qayta ishlangan II nashri. T., «O'qituvchi» 1997 yil.
2. Bikboeva N.U. va boshqalar «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishmetodikasi», T., «O'qituvchi», 1996 yil.
3. Ikramov Dj.I. «Matematicheskaya kultura shkolnika» T., «O'qituvchi», 1981.
4. Kolyagin Yu.N. va boshqalar Metodika prepodavaniya matematiki v sredneyeshkole. Obhaya metodika., M., «Prosveshenie», 1988.
5. Sirojiddinov S.X., Mirzaaxmedov M.A. Matematika kasbi haqida suhbatlar. T., «O'qituvchi», 1993.